

Yanvar, 2025-Yil

USMONIYLAR IMPERIYASIDAN-TURKIYA RESPUBLIKASIGACHA

Otaxonova Gulsanam Alisher qizi

Mirzayeva Mexruza Sharofiddin qizi

Termiz davlat pedagogika instituti 3-kurs talabalari

ataxanovagulsanam@gmail.com

Tel: 99 971 73 70

mirzayevamehruza5@gmail.com

Tel: 93 699 3531

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14729264>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Usmoniylar imperiyasidan Turkiya Respublikasigacha hukmronlik qilgan sultonlar va ularning qisqacha tarixi haqida ma'lumot beriladi. Usmoniylar imperiyasi tashkil topishi, uning ulkan davlatchiligiga xos jihatlari va respublika tashkil topishi uchun olib borilgan harakatlarga alohida e'tibor berib o'tishga harakat qildik. Uning rivojlangan respublika darajasiga yetgunga qadar bosib o'tgan yo'li haqida qisman ma'lumot berib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Usmon bekligi, Kichik Osiyo, xetlar, davlatchilik, imperiya, Istanbul, Konstantinopol, Boyazid Yildirim, Sulton Sulaymon, Mustaf Kamol

Abstract. This article provides information about the sultans who ruled from the Ottoman Empire to the Republic of Turkey and their brief history. We tried to pay special attention to the establishment of the Ottoman Empire, the features of its great statehood, and the actions taken for the establishment of the republic. Partial information is provided about its path to the level of a developed republic.

Key words: Ottoman Empire, Asia Minor, Hittites, statehood, empire, Istanbul, Constantinople, Bayazid Yildirim, Sultan Suleiman, Mustafa Kamal

Абстрактный. В этой статье представлена информация о султанах, правивших от Османской империи до Турецкой Республики, и их краткая история. Особое внимание мы постарались уделить становлению Османской империи, особенностям ее великой государственности и действиям, предпринятым для создания республики. Частично приводятся сведения о ее пути до уровня развитой республики.

Ключевые слова: Османская империя, Малая Азия, хетты, государственность, империя, Стамбул, Константинополь, Баязид Йылдырым, Султан Сулейман, Мустафа Камаль.

Kirish

Bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan davlatlari ichida o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lgan Turkiya davlati boy tarixga va madaniyatga egadir. Turkiyaning hozirgi qiyofasi shakllanishi uchun zamin bo'lgan davrni olimlar Usmon bekligi tashkil topish davri bilan bog'laydilar. Umuman olganda Turk sivilizatsiyasining tarixiga nazar solsak, uning qadim o'tmishga ya'ni Kichik Osiyodagi xett davlatidan to Turk xoqonligi barham topgungacha bo'lgan davrga borib taqaladi. Turkiya tarixida o'zining alohida o'rniga ega bo'lgan ikki sulola saljuqiylar va usmoniylar imperiyasi davrida Turk xalqining milliy davlatchilik asoslari yaratildi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Usmon bekligi XIII asr oxiri XV asrgacha shakllanadi va rivojlanadi. Bu beklik avval Erto'g'ul va uning o'g'li Usmon tomonidan boshqariladi. Usmoniylar sulolasiga Usmon I asos soladi va uning vorislari davrida shu nom asosida ulkan davlatchilik shakllanadi. Usmoniy sultonlardan biri Boyazid Yildirimning Amir Temur bilan urush harakatlari olib borganligi va mag'lubiyati buyuk davlat obro'siga putur yetkazgan bo'lsada, 1453-yil 29- mayda Mehmed II Fotixning Konstantinopolni egallashi Yevropa va Osiyoni bog'lovchi oxirgi xalqani egallashiga va har tomonlama rivojlanish uchun yo'l ochib beradi. XV asr oxiridan boshlab ayniqsa XVI asrda bu davlat o'zining oltin davrini yashab o'tdi. Sulton Salim I va Buyuk Sulaymon sezilarli darajada o'z hududlarini kengaytirishga erishdilar. Usmoniylar tarixini o'rganish jarayonida turli afsonalarni ham keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

Afsona. Usmoniylarning kelib chiqishi haqida turli taxminlar mavjud. Bu taxminlar ko'plab yilnomalarda kichik farqlar bilan uchraydi.

Erto'g'ul qachondir otasi Sulaymon shoh va ikki akasi Sunqur Tegin va Kuntug'dilar bilan Kichik Osiyoga borishadi. Ular bu yerda ko'p yillar qolib ketadi va keyin ortga qaytishadi. Erto'g'ulning o'z Anatolida to'rt yuz shatr bilan qoladi. U o'zining uch o'g'liidan biri Sari Yatini Ko'nyadagi Saljuqiylar sultoni Alouddinning oldiga ular uchun yer ajratishini so'rab yuboradi. Taxminan, 1260- yilda Alouddin Sakarya daryosi bo'yidagi Sayyutda joy ajratadi va Vizantiyadan himoya qilishini tayinlaydi. 1280- yil Erto'g'ulning o'limidan so'ng uning o'g'li Usmon beklik boshiga keladi va tezda greklarga qarshi boradi. Lekin Usmoniylar yilnomalarida bu tarix siyosiy maqsadlarda o'ylab topilganligini aytiladi. XIII asr oxirigacha Usmon Vizantiyaning sharqiy qismida nazorat o'rnatdi. Usmon 1317- yil qo'shin boshqaruvini o'g'li O'rxonga topshiradi. 1326- yildan 1365-yilgacha Bursa Usmoniylar davlatining poytaxti bo'lgan. O'rxonning xizmatlari shundan iboratki u Usmoniylar davlatiga asos soladi. Uning vorisi Murod I davridan esa, hukmdorlar sulton deb atala boshlandi.

Usmoniy sultonlar shajarasi:

Usmon I (1299—1326),
O'rxon (1326— 1359),
Murod I (1359-1389),
Boyazid I (1389—1402),
Boyazid I o'g'illari Sulaymon Chalabey, Muso Chalabeylar, Mehmed Chalabeylarning taxt uchun kurashi (1402—13),
Mexmed I (1413—21),
Murod II (1421—44; 1446—51),
Mehmed II Fotix (1444—46; 1451—81),
Boyazid II (1481-1512),
Salim I (1512—1520),
Sulaymon I Qonuniy (1520—66),
Salim II (1566—74),
Murod III (1574-95),
Mehmed III (1595— 1603),
Ahmad I (1603—17),
Mustafo (1617—18; 1622—23),
Usmon II (1618— 22),
Murod IV (1623—40),
Ibrohim (1640-48),
Mehmed IV (1648-87),
Sulaymon II (1687—91),
Ahmad II (1691-95),
Mustafo II (1695-1703),
Ahmad III (1703 — 30),
Mahmud I (1730-54),
Usmon III (1754-57),
Mustafo III (1757—74),
Abdulhamid I (1774-89),
Salim III (1789-1807),
Mustafo IV (1807—08),
Mahmud II (1808 — 39),

Abdulgʻaniy (1839—61),

Abdulaziz (1861-76),

Murod V (1876),

Abdulhamid II (1876-1909),

Mehmed V Rashid (1909—18),

Mehmed VI Vaqiddin (1918—22),

Mustafo Kamol (Otaturk) tashabbusi bilan Turkiyada sultonlik tugatilgach (1922 y. 1 noyabr), soʻnggi sulton Mehmed VI xoriyga joʻnab ketishga majbur boʻlgan.

Davlatning dastlabki poytaxti Melangiya, 1326— 1362-yillarda Bursa boʻlgan. Sulton Murod I, 1362-yilda poytaxtni Bursadan Edirna (Adrianopol)ga koʻchirgan. Sulton Boyazid II, Salim I va Sulaymon I hukmronlik qilgan davrlarda saltanat haddan tashqari kuchaygan. Xususan, Salim I Yovuz Eron safaviylari shohi Ismoil I qoʻshinini yanchib tashlaydi. Iroq, Shom (Suriya), Falastin, Misrni egallab, Qohiraga kiradi. Bu paytda Misrdan tashqari Shimoliy Afrikaning Jazoir hududi, shuningdek, Bolqon, Arabiston, Janubiy-Sharqiy Anadolu ham Usmoniylar imperiyasi tarkibiga kirgan. Halabda boʻlgan juma namozda sulton Salim I ga „ikki muqaddas shahar xizmatchisi“ faxriy unvoni berilib, xalifa sifatida uning nomi xutbaga qoʻshib oʻqilgan (Usmoniylar sultonlar shu kundan eʼtiboran to 1924-yilgacha ayni paytda islom olamining xalifasi ham hisoblangan). Salim III va Mahmud II hukmronliklari davrida saltanatni parchalanib ketishdan saqlab qolish uchun islohotlar oʻtkazilgan. Sulton Abdulmajid yana islohotlar (Tanzimat) oʻtkazish orqali, bir tomondan, sultonlik inqirozini toʻxtatishga, ikkinchi tomondan, yangi turk ziyolilarini shakllantirishga muvaffaq boʻldi. Bu paytda boʻlgan Qrim urushida Turkiya oʻzining eski raqibi Rossiya imperiyasi ustidan gʻolib chiqdi hamda Qora dengiz va Dunay daryosidagi mavqei qayta tikladi. Tanzimat va 1876-yilda qabul qilingan dastlabki konstitutsiya sulton Abdulhamid II tomonidan bekor qilingach mamlakatda istibdod davri boshlangan. Bu davrda sultonlik Yevropa davlatlariga iqtisodiy jihatdan qaram boʻla boshlagan. XIX asr oxiri — XX asr boshlarida „Ittihad va taraqqiy“ partiyasi aʼzolari mamlakatda konstitutsion monarxiya oʻrnatish uchun qatʼiy harakat qilishgan. Dastlab Turkiya atamasi 1190- yili salibchilar xronikasining muallifi tomonidan turk qabilalari Kichik Osiyoda zabt etganlariga nisbatan qoʻllanilgan. Keyinchalik ularning davlati Turkiya, aholisi esa turklar deb atala boshlandi. Turkiya davlati birinchi jahon urushida Germaniya tomonida turib urushda qatnashishni maʼqul koʻrdi. 1914 yil 2-avgustda yashirin sharoitda Germaniya bilan ittifoqchilik shartnomasini imzoladi. 1915 yilning 15 sentabrida esa Toʻrtlar ittifoqiga qoʻshildi. Brest tinchlik shartnomasi asosida Turkiya Kavkazdagi Kars, Ardagan va Batumi ga ega boʻladi. Turkiya Birinchi jahon urushidan magʻlub

Yanvar, 2025-Yil

davlat sifatida chiqdi. Mamlakat maorifi, tibbiyoti, iqtisodi o'ta zaiflashgan, imperiya qulagan va Yevropa davlatlari Turkiyani qaram davlatga aylantirgandi. Angliya, Gretsiya va Fransiya Turkiyani parchalab tashlab, uning mustaqil davlat sifatida yashashiga nuqta qo'yishni istadi. Bu masala bilan to'rt mamlakatdan iborat kengash Gretsiya tarafiga Antanta tarkibida urush harakatlarida ishtirok etgani uchun sovg'a sifatida Izmirni egallash huquqini topshirdi. 1918yilning 30 dekabrda tuzilgan Mudros bitimi Antanta va Turkiya davlatlari o'rtasidagi birinchi jahon urushidagi harbiy harakatlarga chek qo'ydi. Sevr va Lozanna shartnomasidab so'ng Mustafo Kamolning say-harakatlari bilan 1923- yil 13-avgustda Mustafo Kamol prezident etib saylandi. 1923- yil 2- oktabrda davlatining poytaxtini Anqaraga ko'chirish masalasi hal etiladi. 13-oktabrda Anqara Turkiya davlatining poytaxti deb e'lon qilindi. 1923-yil 29-oktabrda esa Turkiya respublika deb e'lon qilindi.

Xulosa

Turkiyaning XX asrda rivojlanish tarixi tahlil qilinar ekan, uning Usmoniylar imperiyasi qulagach va mustamlaka va harbiy yurishlardan so'ng yangi turk hukumati, siyosiy elita davlat mustaqilligi va mustah-kamligini saqlashda o'zida kuch topa olganini ta'kidlash joiz. Shu qatorda XIX asrda usmoniylarning yevropalashishi o'rnini yangi turk hukumatining modernizatsiyalashuvi jarayoni egalladi. Dunyoviylik va millatchilik mafkurasi usmoniylik, shariat va g'azovot o'rnini egalladi. Mustafo Kamol Otaturk va uning tarafdorlari turk jamiyatini modernizatsiya qilishdek yuksak tarixiy vazifani bajarishga kirishdilar. O'tgan salkam bir asr davomida rivojlanish bosqichidan o'tdilar. Ayniqsa, ilk davrlarda inqilobiy qadamlar mamlakatning dunyoviyligi va iqtisodiyoti hamda sanoatining to'g'ri yo'lga tushib olishini ta'minlab berdi. Jamiyatning qadriyatlarini dunyoviydashishi muvaffaqiyatli olib borilgan bo'lsada, bu jarayonlarning millatchilik va panturkizmga og'ish ruhida kechganligini aytish mumkin.

REFERENCES

1. АлиевГ.З. Турциявпериодправлениямладотурок. М., 1972.
2. ВнешнеэкономическисвязиОсманскоимперииивновоевремя (конец XVIII – начало XX в.). М., 1989.
3. Turkiya tarixi. Oliy ta'lim tizimi tarix va sharqshunoslik yo'nalishlari talabalari ushun qo'llanma TOSHKENT-2018
4. M.Lafasov va boshqalar. YANGI DAVR. T., "Meros", 2002.
5. Sh.Ergashev. Jahon tarixi. Yangi davr XVI-XVIII asrlar. I-qism. T., O'zbekiston 2014